

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR

Andijon davlat pedagogika inisututi Maktabgachan ta'lif fakulteti

Maxsus pedagogika; logopeya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Xabibullayeva Mubina Ulug'bek qizi

Annotatsiya: Ushbu tezisda eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar va ularning ta'lif tarbiya olishlari, eshitish kamchiligiga olib keluvchi omillar va shunday kamchiligi bo'lgan bolalarning turlari sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Eshitish nuqsoni, tug'ma eshitish muammolari, nutq rivojlanishi, o'qtish metodlari, psixalogik yordam, ta'linda yengilliklar, inkluziv ta'lif.

Nutq murakkab ruhiy faoliyat hisoblanadi. Nutq ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi «2017–2021- yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 19-iyuldagagi «Maktabgacha ta'lif muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorida «Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lif muassasasi to'g'risida»gi nizomda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalash, nuqsonlarini korreksiyalash, imkoniyatiga muvofiq muktab ta'limga tayyorlash, jamiyatda moslashuviga ko'maklashish talablarlari qo'yilgan.

Bolalik davrida eshitishni yo'qtish, bolalarning pisixalogik rivojlanishiga sabiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, eshitish kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutqda ham kamchilik kelib chiqishi mumkin. Karlikning paydo bo'lishi nutqning umuman umuman rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin.

Inson rivojlanishida nutq eng muhim faoliyat hisoblanadi. Eshitish kamchiligining kelib chiqish sabablari asosan ikki xil bo'ladi, ya'ni tug'ma va orttirilgan bo'ladi.

Tashqi muhitdan informatsiya ola boshlaydi. Inson tashqi muhiddagi informatsiyaning 90 foizini ko'rish orqali oladi. Ko'rish bu insonning birinchi o'rinda turuvchi sezgi ko'rgani. Bola tug'ilganidan boshlab 11 kunligidan dunyoni oq qora fonda ko'ra boshlaydi. 40 kun o'tgandan so'ng boshqa ranglarni ham anglay boshlaydi. Ikkinci o'rinda eshitish organi turadi. Eshitish orqali bolada tushuncha paydo bo'ladi. Bolalar 1 yoshga to'larto'lmas dada, aya, xola kabi ochiq bo'g'inli so'zlarni eshitib taqlid orqali ayta boshlaydi. [1] Bolaning nutqini rivojlantirish uchun to'liq eshitish juda muhimdir.

Og'zaki nutqning shakillanishida eshitish analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizatori bilan mustahkam bog'langan holda ishlaydi.

Eshitishda nuqsoning turlari va sabablari: Eshitish nuqsoni turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Ular:

1. Genetik omillar: Oila tarixida wshitish muammolari bo'lgan holatlar.

2. Tug'ma nuqsonlar: Bolaning tug'ilishi davomida yuzaga kelgan eshitish muammolari.

3. Kasalliklar va infeksiyalar: masalan, otit kabi yuqumli kasalliklar, shuningdek, ba'zi dorilar va toksinlar ta'sirida.

4. Travmalar va shikastlanishlar: Bosh va quloq sohalaridagi jarohotlar eshitishda nuqsonlarga olib kelishi mumkin.

Eshitish nuqsonining bolalarning rivojlanishiga ta'siri: Eshitish muammolari bo'lgan bolaning rivojlanishida bir qator qiyinchiliklarga olib keladi, jumladan:

1. Til va nutq rivojlanishining sekinlashuvi: Eshitish muammolari bo'lgan nutqni o'rganishda qiyinchiliklar tug'diradi.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

2.Ljtimoiy moslashuvdagi muammolar: Eshitishda muammosi bo‘lgan bolalar ijtimoiy guruhlarga moslashishda qiyinalishi mumkin.

3.Kognitiv(lotincha:cognition “idrok, tasavvur qilish, ishning tahlili”) rivojlanishdagi kechikishlar: Eshitish muammolari intellectual rivojlanishga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ta’lim jarayonida ishlatiladigan usullar va metodlar: eshitishda kamchiligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus ta’lim usullari ishlab chiqilgan.Ular orasida:

1.Maxsus eshitish yordam vositalari: tovush kuchaytiruvchi apparatlar,audiologik qurilmalar.

2.Maxsus o‘qitish metodlari: Vizual,taktil va boshqa sezgilarni rivojlantirishga qaratilgan metodlar.

3.Til va nutqni rivojlantirish dasturlari: O‘qituvchilar tomonidan til va nutqni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar.

4.Ijtimoiy moslashuvni ta’minalash:Eshitish kamchiligi bo‘lgan bolalar uchun ijtimoiy moslashuvni yengillashtirish maqsadida psixalogik yordam ko‘rsatish.

Eshitishda kamchiligi bo‘lgan bolalar uchun inkluziv ta’lim: Eshitishda kamchiligi bo‘lgan bolalar uchun inkuluziv ta’lim muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega.Buning uchun:

-O‘qituvchilarni maxsus tayyorlash: eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash uchun o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash zarur.

-Ikluziv o‘qitish resurslari: Ta’lim materiallarining turli formatlarda(matn,video,audiyo)Bo‘lishi va o‘quv jarayonida moslashuvchanlik.

-Oliy va maktab hamkorligi: Eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashda oilaning faolligi va maktabning yordami zarur.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni ruhiy tuzilishlarini bartaraf etish, uning birlamchi nuqsonni ikkilamchi va uchlamchi nuqsonni yuzaga keltirilganligi maxsus tashkil etilgan ta’lim tarbiya jarayonida amalga oshadi. Eshitishida nuqsoni bor bolalarga gapirishni qisman bo‘lsada logopedlar o’rgatadi. Ortikulyatsion apparat bilan qo’l baravar ishlaydi. So’ngra bola qiyalmasdan asta sekin gapirishni yo’lga quyishi mumkin.

Eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun samarali ta’lim tizimini yaratish,ularning to‘laqonli rivojlanishiga yordam berish uchun maxsus usuller va metodlar ishlab chiqilishi zarur.O‘qituvchilar,ota-onalar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik,shuningdek,maxsus texnalogiyalar va o‘qitish usullarining joriy etilishi bolaning ijtimoiyva intellectual rivojlanishini ta’minalashda muhim rol o‘ynaydi.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR:

1.Xudoyberdiyeva,M.T(2020).”Eshitish nuqsoni va uning bolalarning rivojlanishiga ta’siri”.Toshkent.

2.Komilova,R.S(2021).”Inkluziv ta’limda eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun dars materiallari”.Toshkent